FARG‘ONA VILOYATI YOZYOVON TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 25-iyun 159-11-165-Q/24 Yozyovon tuman hokimligi

Yozyovon tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish yuzasidan tumandagi umumta’lim muassasalarining mikrohududlarini belgilash to‘g‘risida

Farg‘ona viloyati Yozyovon tumani Maktabgacha va maktab ta′limi bo‘limining 2024-yil 2-maydagi “Maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta′limga jalb etish maqsadida tumandagi har bir ta′lim muassasalarini hudud va mikrohududlarga biriktirish to‘g‘risida”gi 1-sonli xati hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 5-bob, 39-bandi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga muvofiq

QAROR QILAMAN:

1.Yozyovon tumani Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limining 2024-yil 11-yanvardagi “Maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta’limga jalb etish maqsadida tumandagi har bir ta’lim muassasalarini hudud va mikrohududlarga biriktirish to‘g‘risida”gi 1-sonli xati ma’qullansin.

2.Yozyovon tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish bo‘yicha umumta’lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud) ro‘yxati ilovaga asosan tasdiqlansin.

3.Yozyovon tumani hokimining o‘rinbosarlari Sh.Mirzaliyev, Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (Sh.Abdullayev) va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

har bir maktabga biriktirilgan mikrohudud sxemasini tuzish va mazkur sxemada mikrohududning aniq chegarasi, uning tarkibiga kirgan ko‘cha, tor va berk ko‘chalardagi barcha uylar, xonadonlarni qamrab olish vazifasi yuklatilsin.

4. Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga:

-Tuman hududida yashovchi maktab yoshidagi bolalarni o‘qishga to‘liq jalb etish bo‘yicha ishchi guruh tashkil etish;

-Har bir maktabga biriktirilgan mikrohudud sxemalarini barcha o‘rta ta’lim maktablariga yetkazish va joylardagi mahalla fuqarolar yig‘inlari bilan ota-onalarga tegishli tushuntirish ishlarini olib borish;

-Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limida tashkil etilgan ishchi guruhning mas’ul hodimlari tomonidan qabul qilinadigan statistik jadvallar monitoringini olib borilishini nazorat qilish vazifalari topshirilsin.

4. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan Yozyovon tuman hokimining 2022 - yil 30 - sentabrdagi 281-11-165-Q/22-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Mazkur qaror “Markaziy Farg‘ona” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari Sh.Mirzaliyev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **D.T.Djalilov**